

ABE KOBONING 「砂の女」«QUMDAGI AYOL» ROMANIDA XRONOTOPNING IFODALANISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15569554>

Dilafruz ABDUXAMIDOVA

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Yaponshunoslik oliy maktabi katta o'qituvchisi, PhD

Gulnora QOSIMOVA

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Yaponshunoslik oliy maktabi katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqola XX asr yapon adabiyotining atoqli yozuvchisi Abe Koboning “Qumdagi ayol” romanida o‘z ifodasini topgan xronotop masalasining tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahliliga bag‘ishlangan. Maqolaning nazariy qismida vaqt va makon tushunchalarining tadqiqiga oid J.Piaje, D.Elkin va A.V.Zaporojets kabi olimlarning nazariy yondashuvlari yoritilgan. Shuningdek, M.M.Baxtin tomonidan taklif etilgan hamda badiiy asar tahlilida muhim ro‘l o‘naydigan xronotop nazariyasiga alohida urg‘u berilgan. Ushbu nazariyaga tayanilib, Abe Koboning “Qumdagi ayol” romanidagi vaqt va makon uyg‘un holda ifodalangani misollar asosida tahlil qilingan. Romanda davriy vaqt modelidan foydalanilgani aniqlangan.

Kalit so‘zlar. Xronotop, davriy vaqt, chiziqli vaqt, chegaralangan makon, Abe Kobo

Аннотация. Данная статья посвящена лингвистическому и литературоведческому анализу хронотопа, отражённого в романе «Женщина в песках» известного японского писателя XX века Абэ Кобо. В теоретической части статьи рассмотрены подходы таких учёных, как Ж.Пиаже, Д.Элькин и А.В.Запорожец к исследованию понятий времени и пространства. Особое внимание уделяется теории хронотопа, предложенной М.М.Бахтиным, играющей важную роль в анализе художественного произведения. Опираясь на эту теорию, на основе примеров проанализировано гармонично сплетенное выражение времени и пространства в романе Абэ Кобо «Женщина в песках». Выявлено, что в романе используется модель циклического времени.

Ключевые слова: хронотоп, циклическое время, линейное время, ограниченное пространство, Абэ Кобо

Abstract. The article is dedicated to the linguistic and literary analysis of the chronotope reflected in the novel *Woman in the Dunes* by the famous 20th-century Japanese writer Abe Kobo. The theoretical part of the article examines the approaches of scholars such as J.Piaget, D.Elkin, and A. V. Zaporozhets to the study of the concepts of time and space. Special attention is paid to the theory of chronotope proposed by M.M.Bakhtin, which plays an important role in the analysis of a literary work. Based on this theory, and using examples, the harmonious intertwining of time and space in Abe Kobo's *Woman in the Dunes* is analyzed. It is revealed that the novel employs a model of cyclical time.

Keywords: *chronotope, cyclical time, linear time, limited space, Abe Kobo*

Makon va vaqtga oid tasavvurlar inson psixikasi ontogeneziga oid ko'pgina yirik tadqiqotlarda tadqiq etilgan. Jumladan J.Piaje¹, D.G.Elkin², A.V. Zaporozets³, E.V.Subbotskiy⁴ kabilarni ishlarida kuzatish mumkin. Ular makon va vaqtga oid tasavvurlar psixik jarayon ekanligini ta'kidlab, turli darajadagi psixik hodisalar misolida ko'rib chiqishadi. Makon va vaqtning umumxususiyatlari ilmiy tavsifiy apparatni shakllantiradi. Ushbu ilmiy tadqiqotlarda vaqt jismoniy, tarixiy, biologik, geologik, psixologik, ijtimoiy, madaniy, lingvistik kabi turlarga ajratiladi. Bundan tashqari, vaqt bir vaqtning o'zida ichki va tashqi, davriy va chiziqli, obyektiv va subyektiv, konseptual va persektiv bo'lishi mumkin⁵.

Inson tafakkurida vaqt haqidagi tasavvurlar 2 xil ko'rinishda mavjuddir. Ketma-ketlikda takrorlanuvchi bir turdagi hodisalar, ya'ni hayotiy faoliyat aylanma jarayoni (davriylik) sifatidagi vaqt va bir yo'nalishda sodir bo'luvchi ilgarilama harakat sifatidagi chiziqli vaqt. Davriy vaqtda takrorlanuvchi vaqt jarayoni nazarda tutilsa, ikkinchisida qaytarib bo'lmas jarayonlar vaqt sifatida tushuniladi.

Til tadqiqotlarida ham vaqtni tadqiq qilishda asosan 2 ta modeldan foydalaniladi. Bular davriy va chiziqli vaqt modellaridir. Ikkala model ham tarixchilar va madaniyatshunos olimlar tomonidan ishlab chiqilgan (M.Gyuyo, N.A.Berdyayev, A.Y. Gurevich). Keyinchalik tilshunoslar tomonidan tadqiqotlarda muvafaqqiyatli qo'llanilgan (B.A.Uspenskiy, Y.S.Stepanov, N.D. Arutyunova, Y.S. Yakovleva, T.V. Toporova va b.). Bu 2 modelda vaqt kategoriyasi ma'lum madaniyat ta'siri ostida va inson tafakkurida shakllangan lisoniy-konseptual yoki lingvomadaniy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi hamda vaqt haqidagi tasavvurlarni til birliklari vositasida ifodalaydi⁶. Davriy va chiziqli vaqt dixtonomiyasi tilda o'z aksini topadi. Misol tariqasida o'zbek tilidagi *fursat* va *vaqt*, *hozirgi* va *bugungi*, *o'tgan* va *o'tmish*, *bundan buyon* va *kelajak* kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Makon va vaqtga oid tasavvurlar xronotop termini orqali beriladi. Xronotop grekchadan so'zma-so'z χρόνος-vaqt, τόπος-makon tarzida tarjima qilinadi. Xronotop bu vaqt va makonning o'zaro munosabati sanaladi. Bu borada M.M.Baxtinning "Romanda xronotop va vaqt shakli" nomli tarixiy poetika bo'yicha ocherki mavjud. Baxtin bu nazariyani Eynshteyn o'zining nisbiylik nazariyasida kiritganini va asoslab berganini yozadi⁷. Baxtin bu nazariyani

¹ Жан Пиаже: теория, эксперименты, дискуссии : Учеб. пособие для студентов психол. специальностей и направлений / Под ред. Л. Ф. Обуховой, Г. В. Бурменской. — М.: Гардарики, 2001.

² Элькин, Д.Г. Восприятие времени / Д.Г. Элькин. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1962.

³ Запорожец А.В. Психология ощущений и восприятия. Хрестоматия по психологии. М., 1999. С. 539-546.

⁴ Субботский, Е.В. (2023). Живая субъективность и культурно-исторический подход: Границы применимости. Вестник Московского Университета. Серия 14. Психология, 46(2), 133–153.

⁵ Сергиева Н.С. Хронотоп жизненного пути в русском языковом сознании. Автореферат дисс. на соис. уч. степ. док. фил. наук. — М.: 2009.

⁶ Сергиева Н.С. Хронотоп жизненного пути в русском языковом сознании. Автореферат дисс. на соис. уч. степ. док. фил. наук. — М.: 2009.

⁷ Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. М., 1986.

adabiyotshunoslikka metafora sifatida olib kiradi va vaqt bilan makonni bir-biridan ajralmas jarayon sifatida asarda ifodalanishini ta'kidlaydi. Shuningdek, u xronotopni adabiyotdagi shakl va mazmunga oid kategoriya sifatida tushunadi.

Ushbu maqolada xronotopning bir-biriga uyg'un holda aks etishi badiiy asar tahlili asosida ko'rib chiqiladi. Manba sifatida Abe Koboning "Qumdagi ayol" romanidan foydalaniladi. Abe Koboning «Qumdagi ayol» romanida xronotop (vaqt va makon) qahramonning murakkab holati va uning obrazi orqali yoritilayotgan mavzu hamda asarning g'oyasiga hamohang hamda monand holda ifodalanadi. Adib tomonidan berilgan vaqt va zamon ifodasi bosh qahramon - Niki Junpei mavjudligining og'ir hamda nafasni bo'g'adigan sharoitlarini, butun asarning bo'g'iq muhitini yanada og'irlashtiradi.

Mazkur o'rinda asar muallifining ijodiga to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Iste'dodli adib va dramaturg Abe Kobo (1924-1993) zamonaviy davrda insonning begonalashuvi, mavjudlikning ma'nosizligi, ruhiy va psixologik yakkalanish kabi mavzularni yoritib beruvchi asarlari bilan urushdan keyingi yapon adabiyoti sahifalarida nom qoldirgan yirik ijodkordir. 「砂の女」 («Qumdagi ayol», 1962), 「他人の顔」 («Begonaning yuzi», 1964), 「箱男」 («Quti erkak», 1973) va boshqa bir qator asarlarida adib hayotning mohiyati, ijtimoiy tuzum va shaxsning o'zligini, shaxsiy «meni»ni izlashi kabi falsafiy xarakterdagi masalalarni ko'tardi.

Yuqorida nomi zikr etilganlar sirasida «Qumdagi ayol» romani Abe Kobo ijodidagi eng ahamiyatli asar sanalib, o'zida adib butun ijodining asosiy mavzularini to'laqonli mujassamlashtirgan. Romanda voqealar bosh qahramon - o'qituvchi hamda entomolog Niki Junpeining ispan pashshasini yig'ish va o'rganish maqsadida sahroda joylashgan qishloqqa kelishi, qishloq aholisining taklifiga binoan bir ayolning qum o'rasidagi uyida tunab qolishi bilan boshlanadi. Syujet rivojida qahramon ushbu qum o'rasidagi uy aslida qishloq aholisi tomonidan qo'yilgan tuzoq ekanligini va u bundan buyon qishloqni qum bosib qolishini oldini olish uchun ayolga majburan yordam berishga mahkum qilinganligini anglab yetadi. Bosh qahramon bilan sodir bo'lgan ushbu voqealar fonida Abe Koboning hayot, vaqt, taqdir va inson tabiati bilan bog'liq mushohadalari o'zining badiiy ifodasini topadi. Nima sababdan bu kabi voqealar aynan u bilan sodir bo'layotganligini tushuna olmay, bunday qismatini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lmagan bosh qahramonning absurd holati, tashqi tuzum bilan ma'nosiz kurash, olamdan hamda boshqa odamlarda ajralib, yopiq makonda qamalib qolish motivi «Qumdagi ayol» romanini Frans Kafka asarlariga yaqinlashtiradi. Kafka kabi Abe Kobo ham romani orqali hayot va o'lim, mavjudlikning ma'nosizligi va insonning o'zligini anglashi bilan bog'liq muhim masalalarni kitobxon oldiga ko'ndalang qo'yadi.

«Qumdagi ayol» o'ziga xos arxitektonikaga ega bo'lib, u 31 bob va asarning so'nggi qismida keltirilgan ikki rasmiy hujjatdan («odam yo'qolganligi to'g'risidagi e'lon» va «sud qarori») tashkil topgan romandir. Asar mutolaa

qilinganda, unda ikki hikoyachi mavjudligi ayon bo‘lib⁸, ushbu ikki hikoyachi ikki xil zamon sathlarida voqealarni bayon etadi. Birinchi hikoyachi romanning dastlabki bobidagina namoyon bo‘lib, o‘tgan zamonda sodir bo‘lgan, ya’ni 2-bobdan boshlab asarning oxirgi 31-bobigacha hikoya qilnadigan voqealar haqida xabar beradi.

8月のある日、男が一人、行方不明になった。休暇を利用して、汽車で半日ばかりの海岸に出掛けたり、消息をたってしまったのだ。搜索願も、新聞報告も、すべて、無駄におわった。[安部公房「砂の女」: 5]

Avgust kunlarining birida, bir erkak yo‘qolib qoldi. Ta‘til kunlaridan foydalangan holda poyezdda atigi yarim kunlik yo‘l uzoqlikdagi sohilga ketganicha dong daraksiz yo‘qoldi. Politsiyaga berilgan qidiruv arizasi ham, gazetadagi e‘lon ham, bari natijasiz yakun topdi.

Birinchi hikoyachi so‘zlab berayotgan voqealar o‘tmishda sodir bo‘lganligini «sud qarori» shaklida kelritilgan asarning oxirgi qismi aniq tasdiqlaydi.

...仁木順平... 上記の不在者に対する失踪宣告申立について、公示催告の手続きをした上、不在者は昭和 30 年 8 月 18 日以来 7 年以上生死が分からないものと認め、次のとおり審判する。...仁木順平失踪者とする。昭和 37 年 10 月 5 日... [安部公房「砂の女」: 230]

...Niki Junpei... Yuqorida ismi zikr etilgan shaxsning yo‘qolganligi to‘g‘risidagi ariza berilib, uning 1955- yil 18-avgustidan beri 7 yildan ortiq muddat ichida tirik yoki o‘likligi ma‘lum emas deb topildi va quyidagicha hukmga kelindi. ... Niki Junpei dong daraksiz yo‘qolgan deb hisoblansin. 1962 yil 5 oktyabr...

Mazkur parchalar orqali romanda bosh qahramon bilan sodir bo‘lgan voqealar zamon nuqatayi nazaridan umumhisobda yetti yillik muddatni qamrab olganligini tushunish mumkin. Biroq asarda Niki Junpeining qum o‘rasidagi hayotining taxminan dastlabki o‘n oyli (avgustdan may oyining oxirigacha) hikoya qilinib, kitobxon sud qarori orqaligina uning ushbu qumli qishloqda o‘z xohishi bilan qolib ketganligini anglaydi. Xususan, romanning so‘nggi 31-bobida voqealar rivojining jadallashganini kuzatish mumkin bo‘lib, unda kunlar, haftalar, oy va fasllar asarning boshqa boblaridan farqli ravishda ko‘z ochib-yumguncha o‘tib ketadi. Qismatiga, yangi hayot tarziga o‘zi bilmagan holda ko‘nikib borayotgan va qumli makonda suv yig‘ish imkonini beruvchi qurilmani tasodifan ixtiro qilgan qahramon uchun vaqt go‘yoki o‘zining ahamiyatini butunlay yo‘qogandek tuyuladi.

また、変りばえのしない、砂と夜の何週間かが過ぎさった。[安部公房「砂の女」: 221]十一月のはじめに、一日四リットルを記録したのを最後にして、あとは一日ごとに、下降線をたどりはじめた。[安部公房「砂の女」: 225] ... それでもなんと

⁸ «Qumdagi ayol» romanida ikki hikoyachi mavjud ekanligi bilan bog‘liq fikr Shifu Hioning 「安部公房『砂の女』論 — 「異空間」の叙事詩」 «Abe Koboning «Qumdagi ayol» romani tadqiqi: «o‘zga makon» epos» nomli tadqiqotida ham keltiriladi. Batafsil qarang: https://www.ritsumei.ac.jp/acd/cg/lt/rb/655/655PDF/Shifu_Huo.pdf

か、冬が過ぎ、春になった。三月のはじめに、やっとラジオが手に入り、屋根の上に、高いアンテナえをたてた。... その月の終わりに、女が妊娠した。さらに、二た月たつて、大きな白い鳥が三日にわたって西から東に飛んでいったある日、突然女が下半身を血に染めて、激痛を訴えだした。...[安部公房「砂の女」: 226]

Yana, bir xil qumli tunlar, bir necha haftalar o'tib ketdi... Noyabrning boshlarida suv to'rt litrgacha yig'ilib, undan keyin kundan kun kamayib, quyi chizig'igacha yetishni boshladi... Shunday bo'lsada, qish tugab, bahor keldi. Mart oyining boshida, vanihoyat, radioni qo'lga kiritib, tomga baland antenna o'rnatdi... Ushbu oyning yakunida, ayol homilador bo'ldi. Yana ikki oy o'tib, katta oq qushlar uch kun mobaynida g'arbdan sharqqa uchganidan keyin bir kun o'tib, to'satdan badanining pastki qismi qonga bo'yalgan ayol qattiq og'riqdan shikoyat qildi...

Romanning 2-bobidan boshlab ikkinchi hikoyachi so'zga kirib, bosh qahramonni chetdan kuzatgan holda u boshidan kechirayotgan voqea-hodisalarni birin-ketin tafsilotlari bilan yoritib beradi. Ikkinchi hikoyachi go'yoki Niki Junpeining kundalik hayoti haqida kitobxonga kunlik xabar berib turayotgan muxbir sifatida namoyon bo'ladi. Bu hikoyachining bosh qahramon bilan bir zamon sathida mavjud ekanligi bilan izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan, birinchi hikoyachiga nisbatan ikkinchi hikoyachi bosh qahramon kabi o'tmishga tegishli hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, zamon nuqtayi nazaridan o'n oylik davrni qamrab oluvchi syujet aynan ushbu ikkinchi, boshqacha qilib aytganda, asosiy hikoyachi tilidan yoritiladi. Yuqoridagi gapda vaqt va makonning uyg'un holda ifodalanganini ham kuzatish mumkin. Ushbu gapda kun, hafta, sana, oy va faslni ifodalovchi so'zlar bilan bir qatorda, ma'lum vaqtning boshlanishini bildiruvchi ~はじめに *boshlarida*, ~のはじめに *oyining boshida* kabi ravishlar, ma'lum jarayonning boshlanishini anglatuvchi たどりはじめた *yetishni boshladi* ko'makchi fe'llar, ma'lum davr tugashini bildiruvchi 終わりに *-ning yakunida* kabi ravishlar hamda vaqtning o'tishi ~たって yoki tugashini bildiruvchi 過ぎ去った *o'tib ketdi*, fasllar almashinuvini, jarayonning o'zgarishini bildiruvchi ~になった *kirib keldi* kabi fe'llar qo'llanilganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, ushbu gapning yakunida vaqt aniq bir so'z turkumiga oid so'z yoki grammatik kategoriya orqali ifodalanmay, bilvosita aniq bir vaqtni ifodalovchi hodisa orqali berilayotganini guvohi bo'lamiz: 大きな白い鳥が三日にわたって西から東に飛んでいったある日 *katta oq qushlar uch kun mobaynida g'arbdan sharqqa uchganidan keyin bir kun* qushlarning g'arbdan sharqqa 3 kun mobaynida uchish hodisasi orqali may oyining bir kuni nazarda tutilayotganini anglash mumkin. Bu katta jumlada qo'llanilgan so'z va iboralar romanda vaqt ifodalashning davriy modelidan foydalanilganidan dalolat beradi.

Qum o'rasidan qochish imkoniyati va istagi kamayishi bilan vaqt hamda zamonning ifodasi ham mavhumlashib boradi. Adib vaqt o'tayotganini 終わった *tugadi*, 過ぎ去った *o'tib ketdi*, 経った *vaqt o'tdi*, なった *bo'ldi* kabi fe'llar ifodalaydi.

Umuman olganda, romanda vaqtni idrok qilish murakkab bo'lib, u syujet doirasida cho'zilib, davriy tus oladi. Bir zamon, bir vaqt oralig'ida to'xtab qolgan qahramon har kuni bir xil ishni bajarishga, ya'ni kun bo'yi qum bosgan o'rani tunda yana qumdan tozalashi kerak. U vaqt o'tganini kun va tunning almashishi bilangina anglaydi. Mazkur holat bosh qahramon hayotini go'yoki har yangi kun undan oldingi kunning takroridek tuyuladigan cheksiz **siklga** aylantiradi. Shu bois, deyarli barcha modernizm adabiyoti namunalari kabi «Qumdagi ayol» romanida ham o'z chizig'i va shaklini yo'qotgan vaqt mavjudlikning ma'nosizligini ta'minlab berayotgan mexanizmga aylanadi.

Romanda o'ta mavhum ifodalangan vaqt asarning asosiy obrazi - muayyan bir shaklga ega bo'lmagan, oquvchan «qum»ga o'xshaydi. Aniq bir vaqt o'lchovining mavjud emasligi qahramonning ekzistensial bo'shlig'ini, vaqtning muayyan bir natija yoki o'zgarishga olib kelmayotganligi tufayli tushib qolgan umidsiz ahvolini yanada kuchli namoyon etadi. Bu o'z navbatida bosh qahramonning real hayoti na kelajagi, na o'tmishi bor bo'lgan bir zamonda qotib qolganligi g'oyasini ifodalaydi.

Romanda vaqt noaniq tarzda ifodalanganini quyidagi misollarda kuzatish mumkin.

八月のある日、男が一人、行方が不明になった。[安部公房「砂の女」: 5]

Avgustning ma'lum bir kunida bir erkak kishi yo'qolib qoldi.

Bu gapda avgust oyining ma'lum bir kuni tarzida berilib aniq qaysi kunligi ochiqqlanmagan, 行方が不明になった birikmasida 行方 qayerda ekanligi noma'lumligi nazarda tutilgani bois gapda makon ham ifodalanmoqda.

ある八月の午後、大きな木箱と水筒を肩から十文字にかけ、まるでこれから山登りにもするように、ネズミ色のピケ帽の男が一人、S 駅のプラットフォームに降り立った。[安部公房「砂の女」: 7]

Avgust kunlarining birida tushdan keyin kulrang piket panamadagi bir kishi S stansiyasi platformasida paydo bo'ldi, u xuddi buyog'iga toqqa chiqmoqchi bo'lgandek, yelkasiga ko'ndalang osilgan katta yog'och sumka va suvdonni ko'tarib olgandi.

Yuqoridagi gapda ma'lum bir avgust oyining tushdan keyingi vaqti nazarda tutilayotgan bo'lsa-da, qaysi yilning aynan qaysi sanasi ekanligi aniq aytilmagan. Ushbu gapda berilgan これから buyog'iga (olmosh+chiqish kelishigi) so'zi ham vaqtni, ham makonni ifodalab kelmoqda.

いつまでたっても海は見えなかった。[安部公房「砂の女」: 8]

Qancha vaqt o'tsa ham dengiz ko'rinmadi.

いつまでたっても birligi orqali noma'lum vaqt ifodalanganini ko'rish mumkin.

Makon masalasiga kelsak, zamondan farqli o'laroq u aksincha, tafsilotlari bilan juda aniq o'zining ifodasini topadi. Abe Kobo yapon adabiy an'alariga sodiq qolgan holda peyzaj tasviriga alohida e'tibor bergan bo'lib, u butun asar matnida salmoqli o'rin tutadi.

«Qumdagi ayol» romanida makon yopiq, chegaralangan muhit sifatida namoyon boʻlib, u qahramonning tashqi dunyodan yakkalanishi yoki uzilib qolishini ramziy ifodalaydi. Asarning boshidanoq qahramon bir qishloqqa borib qoladi va shu ondan boshlab u tashqi dunyo bilan oʻz aloqalarini yoʻqotgan yopiq bir makonga kiradi. Adib asarning bir necha sahifalarini ushbu oʻziga xos gʻayritabiiy, fantastik qishloqning tasviri uchun bagʻishlaydi.

...とつぜん視界がひらけて、小さな部落があらわれた。高い火の見機を中心に、小石でおさえた板がきの屋根がむらがった、貧しいありふれた村落である。むろん、その中の何軒かは、黒い瓦ぶきだったり、べにがら色のトタンぶきだったりした。トタンがきの建物は、部落の中の嘘一の四つ出の角にあって、どうやら漁業組合の集合所らしかった。...この向うに、目的の海も、砂丘もあるのだろう。だがその部落は意外に広がった。わずかに土が露出しているところもあったが、大半は白く乾いた砂地だった。[安部公房「砂の女」: 8-9]

...部落の側を振返ると、砂丘の頂上に近いほど深く掘られた、大きな穴が、部落の中心にむかって幾層にも並び、まるで壊れかかった蜂の巣である。砂丘に村が、重なりあってしまったのだ。あるいは、村に砂丘が、重なりあってしまったのだ。いずれにしても、苛立たしい、人を落着かせない景色だった。[安部公房「砂の女」: 10]

適当な湿気さえあれば、一日で芽をふきそうな雑草が、ところどころに浅い根をひろげている以外、生物らしいものの影一つない。[安部公房「砂の女」: 17]

Toʻsatdan koʻz oʻngida manzara ochilib, kichik qishloq namoyon boʻldi. Markazidagi oʻt oʻchirish minorasining atrofini kichik toshlar bilan bostirilgan toʻsinli tomlar qurshagan edi. Qashshoqlik ufurib turgan qishloq. Albatta, qishloqdagi ayrim uylar qora cherepitsali yoki qizil rangdagi tunuka tomli edi. Tunuka tomli bino qishloqning yagona chorrahasi muyulishida joylashgan boʻlib, aftidan baliqchilar uyushmasining boshqarmasi boʻlsa kerak. ...Bu tomonda, ehtimol kutilgan dengiz va qum tepa boʻlsa kerak. Biroq bu qishloq kutilmaganda keng boʻlib chiqdi. Baʼzi joylarda yer koʻrinib tursa-da, asosan hamma yoq oq, quruq qum bilan qoplangan edi. ...

...qishloq tomon oʻgirilganida, qum tepaliklarining eng yuqori qismida, qishloq markaziga qarab chuqurroq qazilgan katta oʻralar bir necha qatlamlarda joylashgan boʻlib goʻyo vayron boʻlgan bolari uyasidek edi. Qishloq qum tepalarini bosib olgan yoki aksincha, qishloqni qum tepalari bosi olgan edi. Nima boʻlganda ham, bu odamni jigʻiga tegadigan, halovat bermaydigan manzara edi.

Agar biroz namlik boʻlsa, bir kun ichida oʻsib chiqishi mumkin boʻlgan begona oʻtlar yuzaki ildizlarini yoygan. Bundan boshqa hech qanday tirik jon koʻrinmaydi.

Yuqoridagi parchadan romanda noaniq ifodalangan vaqtdan farqli ravishda, makonning aniq ifodalanganini, uning chegaralari aniq koʻrsatilganini kuzatish mumkin.

Bosh qahramon yashaydigan shahardan farqli ravishda tashqi dunyodan uzilib qolgan qishloq asarda begonalashuv va yakkalanish hissini yuzaga kelishini taʼminlab bergan muhim obraz hisoblanadi. Mazkur qishloqning aholisi ham ushbu makonga undan ozod boʻlish imkonini yoʻqotgan holda mahkum etilgan. Bu oʻz

navbatida asarda ilgari surilgan inson mavjudligining ma'nosizligi mavzusini yanada kuchaytirgan hamda qay tarzda jamiyat kundalik hayot chegaralarini oshib o'tish imkonini bermagan holda insonlarni o'z domiga tortib ketayotgan ulkan mexanizmning qismiga aylanishi mumkinligini namoyon etgan.

Muallif qishloq ko'rinishidagi yopiq makon ichida bosh qahramonni yana yopiq makonda, ya'ni ayolning qum o'ralaridagi kulbasiga mahkum qiladi. Asar syujetida yoritiladigan voqea-hodisalarining asosiy makoni sifatidagi ushbu kulba qishloq peyzaji kabi adib tomonidan tafsilotlari bilan tasvirlanadi.

壁ははげ落ち、襖のかわりにムシロがかかり、柱はゆがみ、窓にはすべて板が打ちつけられ、畳はほとんど腐る一歩手前で、歩くと濡れたスポンジを踏むような音をたてた。そのうえ、焼けた砂のむれるような異臭が、いちめんにただよっていた。[安部公房「砂の女」: 24]

Devorlar to'kilib, fushimaning o'rniga bo'yra osilgan, ustunlar qiyshaygan, derazalarning barchasi taxta bilan qoqib to'silgan, tatamilar deyarli chirigan bo'lib, qadam tashlaganda ho'l yostiqli bosgandagidek tovush chiqadi. Shuningdek, kuygan qumning namlanganidek badbo'y hidi anqib turar edi.

Hamisha qum ostida g'arq bo'lishi mumkin bo'lgan ushbu kulba asarda adib yetkazib bermoqchi bo'lgan tushunchalar - asirlik, begonalashuv kabilarning metaforasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, romanda ba'zi so'zlar uchraydiki, ularda ham vaqt ham makon bir vaqtning o'zida ifodalanганиni kuzatish mumkin.

いよいよこの先が目指す海に達しない。[安部公房「砂の女」: 8]

Va nihoyat buyog'i u ko'zlagan dengiz bo'lishi kerak.

Bu gapdagi [kono saki] birikmasi birozdan keyingi vaqtni anglatishi bilan birga, ozgina yurgandan keyingi joyni ham ko'rsatmoqda.

道はますます上がり坂になり、ますます砂らしい砂になった。[安部公房「砂の女」: 9]

Yo'l asta-sekin yuqorilab borib, asta-sekin qum ham haqiqiy qum kabi bo'lib boshladi.

Yapon tilida grammatik konstruksiyalar asosida ham davriy vaqt ifodalanadi.

先に進むにつれてひどくなり、やがて、すべての家が、砂の斜面を掘り下げ、そのくぼみの中に立てたように見えてきた。[安部公房「砂の女」: 10]

Oldinga yurgani sari ko'rinish battar yomonlashib, birozdan so'ng hamma uylar qumli qiyalikni kovlab, kovaklari ichiga qurilganga o'xshab ko'rina boshladi.

Ushbu gapda ~につれて ko'makchisi qahramonning oldinga harakatlanish jarayonini ko'rsatib vaqt harakatlanayotganiga ishora qilmoqda va やがて so'zi orqali esa noma'lum vaqt ifodalanib, biroz o'tib o'zgarish sodir bo'lgani aytilmoqda. Bundan tashqari, shu gapning o'zida bir vaqtda aniq chegaralangan makon ifodalanmoqda くぼみの中に kovak ichida joylashgan uy aniq chegaralarga ega makon sifatida namoyon bo'lmoqda.

道は次第に上がり坂になっていく。[安部公房「砂の女」: 9]

Yo'l asta-sekin yuqorilab borardi.

Yo‘ldagi yuqorilama harakat orqali ushbu gapda ham vaqt va makonning uyg‘un tarzda ifodalanganini ko‘rish mumkin.

Abe Koboning «Qumdagi ayol» romanida zamon va makon masalasi haqida so‘z borar ekan, xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, xronotop nafaqat voqea-hodisalar uchun fon vazifasini o‘taydi, balki asar muhitini faol shakllantiradi va begonalashuv, yolg‘izlik, mavjudlikning ma’nosizligi va tashqi kuchlar ta’sirida inson shaxsiyatining yo‘qolib borishi kabi asosiy falsafiy mavzularga ham urg‘u beradi. Yopiq makon, vaqt hamda zamonning davriyligi ma’nosiz va umidsiz dunyo bilan doimiy kurashish jarayorida o‘z shart-sharoitlarining tuzog‘iga tushib qolgan qahramonning ichki dunyosini aks ettirgan. Umuman olganda romanda vaqt va makon qahramonning hayotini ifodalaydi. Kun, oy, fasl, hodisa va jarayonlarning poyonsiz aylanmasi davriy takrorlanuvchi va yakka-yu yagona bo‘lmagan bugungi kunni anglashga yordam beradi. Romanda ravish, fe‘l va grammatik konstruksiyalar orqali berilgan takroriy jarayonlar hamda qahramon taqdiri davriy vaqt bilan assotsiatsiyalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Жан Пиаже: теория, эксперименты, дискуссии: Учеб. пособие для студентов психол. специальностей и направлений / Под. ред. Л. Ф. Обуховой, Г. В. Бурменской. — М.: Гардарики, 2001.
2. Элькин, Д.Г. Восприятие времени / Д.Г. Элькин. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1962.
3. Запорожец А.В. Психология ощущений и восприятия. Хрестоматия по психологии. М., 1999. С. 539-546.
4. Субботский, Е.В. (2023). Живая субъективность и культурно-исторический подход: Границы применимости. Вестник Московского Университета. Серия 14. Психология, 46(2), 133–153.
5. Сергиева Н.С. Хронотоп жизненного пути в русском языковом сознании. Автореферат дисс. на соис. уч. степ. док. фил. наук. – М.: 2009.
6. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. М., 1986.
7. 安部公房 (1981)「砂の女」新潮社. - 240 p.
8. 霍士富. 安部公房『砂の女』論:「異空間」の叙事詩 //立命館文學= The journal of cultural sciences/立命館大学人文学会 編. – 2018. – №. 655. – С. 486-466.

